**Islomboyeva Durdona Dilshodovna**
*O'zMU Xorijiy jurnalistika va o'zbek filologiyasi, o'zga tilli kurslarda rus tili yo'nalishi 4-kurs talabasi, 40-maktab rus tili o'qituvchisi*

## XATOSINI TUSHUNDI

Zebo 9 sinfda o'qir edi. U doim darsda mobil telefon o'ynab o'tirar, shu bois fanlarni o'zlashtira olmas edi. Bundan habar topgan sinf rahbari Holova Nazokat opa unga tanbeh berdi.Zeboning onasi bilan gaplashdilar ham. Lekin Zebo bunga parvo ham qilmadi. Yana shu holat davom etaverdi.Bir kuni maktabda tanlov bo'lib o'tdi. Ana shu tanlovda Zebo va uning "do'stlari"ni qilmishlari sahna ko'rinishi orqali ochib berildi. Buni ko'rgan Zebo tasirlanib ketdi va sinfdoshlariga raxmat aytdi. Ertasi kuni u mobil telefon ishlatmaydigan bo'ldi. Zebo o'z xatosini tushundi.

## YORDAM BO'LDI

Yozning jazirama kunlarida Tirkash bobo qishda ko'chib o'tishlari uchun uy qurayotgan edi. Tirkash boboga mahalladagilar yordam berishayotgan edi. Mehnatkash hasharchilarga ma- halladagi ayollar jonlarga huzur bo'ladigan muzdek ayronlar-u suvlardan eltib berardi.

Tirkash bobo qattiqqo'l lekin mehribon bobolardan edi. Ana-mana deguncha hasharchilar Uyning yarmini bitkazib bo'lishdi. Bir oz dam olaylik deb, qurilishda ishtirok etayotganlar O'zlarini soyaga olib, o'tirishdilar.Shu payt bolalar maktabdan qaytayotgan ekan.

- Assalomu alaykum, hormanglar

-Va alekum assalom salomat bo'ling-dedi Tirkash bobo va hasharchilar

Ismoil, Dilshod, Ikromlar solinayotgan uyga nazar tashlab chiqti-da sumkalarini qo'yishib, yenglarini shimarib, darhol ishga tushib ketishdi. Ismoil suv tashir, Ikrom esa Dilshodga g'isht olib berib turar edi. Bu bolalarning yoniga Tirkash bobo va hasharchilar ham qo'shildi. Birgalashib uyni ham qurib bitirishdi. Bu bolalarni hamma yahshi ko'rib, duolar qilishib, ota-onalariga rahmatlar aytishdi.

Tirkash bobo bu bolalarga tashakkur bildirib;

-Barakallo bolalarim, barakallo mana bu kitob sizlarga; deya bolalarni mehnatini munosib baholashdi. Ismoil, Dilshod va Ikromning bu ishi Tirkash boboga yordam bo'ldi.

***Qaysar gul***

Bahor kelishi bilan bog'da turli tuman gullar ochilib, bog'ni yashnatib yuboribdi.

Uning yonidan o'tayotgan odamlar u yerdagi gullarni ko'rib, quvonibdi. Bir kuni gular suhbat qurishibdi Shunda ularning ichidagi qo'ng'iroq gui shunday deb qolibdi.

Lola, binafsha, moychechak gullardan ko'ra men chiroylirogman Odamlar ham ulardan ko'ra meni vakshi ko'rishyapti.

Keyin binafsha debdi:

- bu yerdagi barchamiz bir birimizdan go'zalmiz Odamlar bittamizni emas hammamizni ko'rgani kelishyapti. Chunki hammamiz birgalashib bu bog'ga tayz berib turibimiz.

Bu bog'ning malikasi o'zimman barbir sızlar bo'lmasalaring ham o'zim bu bog'ni vashnatiti turaman, deya qaysarlik qilibdi qo'ng'iroq gul.

Kunlar, kunlar ketidan bir birini quvib oylar o'ta boshlabdi,kuz fasli ham kirib kelibdi. Shu kunlarda Qattiq shamol bo'lib kuchli yomg'irli do'l yog'ibti Shu paytda barcha gular bir birlari bilan hayrlashib.

Yomg'ir tagida nobut bo'libdi Yakka o'zi qolgan qo'ng'iroggul keng bog'da yolg'izlikdan qiynalibdi. Bog ga hech kim kirmay, odmlar qaramay qo'yibti Shunda binafsha guining gaplari yodiga tushibti va afsus nadomatlar ila anglab yetibdiki yakka o'zini emas birdamlikda harakat qilishni va hayot ko'pchi bilan go'zal bo'lishini tushunibdi.

